



O'ZBEKISTON AGRAR TARMOG'I RIVOJIDA CHORVA HAYVONLARINI SUG'URTAVIY HIMOYALASHNING DOLZARB MASALALARI

Yadgarov Akram Akbarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasida prof. v.b., i.f.d. (DSc)

E-mail: ayadgarov79@mail.ru

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 6 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss6/a14	Maqolada global iqlim o'zgarishining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri ortib borayotgan bir vaqtda agrar tarmoqda chorvachilikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi korxonalaridagi chorva hayvonlarini sug'urtalashning nazariy va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada shorva hayvonlarini barcha sug'urta tavakkalchiliklaridan ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar ko'lamida sug'urtalash qoidalarida ayrim kasalliklar to'liq o'z ifodasini topmaganligi, chorva hayvonlarini sug'urtalash bo'yicha ayrim hujjatlariga va tegishli shartnomalarga o'zgartirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
KEYWORDS	<i>chorva hayvonlari sug'urtasi, ixtiyoriy va majburiy sug'urta, agrosug'urta, qishloq xo'jaligini sug'urtalash.</i>

Kirish

Global iqlim o'zgarishlari xavfining yildan-yilga ortib borishi, turli baxtsiz hodisalar, texnogen va kutilmagan tabiiy ofatlar natijasida oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishi xalqaro hamjamiyatni va sohada faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilarni bee'tibor qoldirmayotganligi ayni haqiqat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonning 32-maqsadida "Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar ko'paytirish" masalalariga alohida to'xtalib o'tgan holda quyidagilar bevosita ta'kidlab o'tildi: chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish, bu borada chorvachilik sohasida 1 868 ta loyihani amalga oshirish bo'yicha moliyalashtirish manbalari aniq ko'rsatilgan manzilli dasturni ishlab chiqish; parrandachilik yo'nalishida naschilik xo'jaliklari sonini 50 taga etkazish, shuningdek, parrandachilik yo'nalishidagi 306 ta loyihalarni amalga oshirish; baliqchilikni rivojlantirish va baliq etishtirish hajmini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashdan iborat [1].

O'zbekiston agrar tarmog'ida chorvachilik tarmoqlarini ustivor darajada rivojlantirish istiqbolda mamlakat aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, aholiga arzon va sifatli go'sht hamda sut mahsulotlarini etkazib berishda, charm-poyabzal sanoatini xom ashyo bilan ta'minlashda o'ziga xos muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Respublikamiz aholisining deyarli 17,4 mln. kishi qishloq joylarida yashab kelayotganligi hisobga olgan holda aytish joizki, aynan chorvachilikning turli shakllari bilan shug'ullanish orqali aholi bandligini ta'minlashga hamda ma'lum bir darajada daromad manbaini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra respublikamiz qishloq xo'jaligida chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish va aholi o'rtasida chorvachilikka bo'lgan

qiziqishlarini rag'batlantirishga qaratilgan vazifalar batafsil keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va agrar tarmoqda fermerlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish borasida quyidagi fikrlarni, ya'ni "...chorvachilik, ipakchilik kabi boshqa tarmoqlarda ham bugungi kun talabiga javob beradigan klasterlarni tashkil etish ishlarini davom ettiramiz" deb ta'kidlangan [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi" to'g'risidagi Farmoniga muvofiq "Chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, baliq va parranda go'shti, shuningdek, sut ishlab chiqarishni barqaror intensivlashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borish" kabi masalalar ta'kidlab o'tilganligi aynan yurtimizda ushbu sohani barqaror rivojlantirish borasidagi strategik islohotlardan biridir [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» 4576-sonli Qarorida, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan qoramolchilik xususidan, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va quyonchilik bo'yicha, shu jumladan, chorva komplekslarini qurish, yirik va mayda shoxli nasldor chorva mollari xarid qilish, chorva mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun tijorat banklari tomonidan subsidiyalash asosida rivojlantirish masalalari o'z ifodasini topgan [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 martdagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga ko'ra tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va quyonchilik bo'yicha, shu jumladan, chorva komplekslarini qurish, yirik va mayda shoxli nasldor chorva mollari xarid qilish, chorva mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha

loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar ajratish va kafillik taqdim etish masalalari belgilab berilgan [5].

O'zbekistonda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fermer va dehqon xo'jaliklari hamda aholi xonadonlarida chorva mollarni boqish, oziqlantirish, ozuqa ekinlarini ekish, yetishtirish, ozuqalarni saqlash, ratsion asosida ozuqalar bilan oziqlantirish, sun'iy urug'lantirish hamda naslchilik ishlarini olib borishda hisob-kitob hujjatlarini yuritishga qaratilgan. Chorva mollarning zoti, kelib chiqishi, ekstereri va konstitutsiyasi, mahsuldorligi, naslchilik ishlari, maxsulotni identifikatsiyalash, sertifikatlashtirish, ozuqalarni tayyorlash texnologiyalari, tarmoqni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil etilgan [6].

Chorvachilikni sug'urtalash chorvadorlarning uy xo'jaliklarida iqlim o'zgarishiga chidamliligini ta'minlash borasida, xususan chorvachilikni sug'urtalash, chorvachilik mahsulotlari yetishtirish jarayonida uchraydigan turli tabiiy hodisalardan sug'urtaviy himoyalash masalalari bo'yicha Tahereh Biglari, Hamideh Maleksaeidi, Farzad Eskandari, Mohammad Jalali kabilar tomonidan o'rganilgan [7].

Tahlil va natijalar

Jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash global masalaga aylandi. Iqlim o'zgarishi natijasida qishloq xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirishda tabiiy va texnogen hodisalar salbiy ta'sir etib kelmoqda. Xususan, havo haroratining ko'tarilishi, qurg'oqchilik, do'l, kuchli shamol, qattiq va quruq sovuq, yog'ingarchilik miqdorining keskin tushib ketishi, turli yong'inlar, turli zararkunanda va hashoratlarning bosishi, yaylovlarining qisqarishi, tuproqlarning eroziyaga uchrashi natijasida chorva uchun ozuqa ekin maydonlarining qisqarishi, chorvachilikda uchraydigan turli kasalliklar tarmoq rivojiga keskin ta'sir etmoqda.

Dunyo davlatlarida yildan-yilga tabiatdagi iqlim o'zgarishlarning avj olishi oziq-ovqat xavfsizligi kabi muammolarni keltirib chiqarishi bilan birga chorvachilik tarmoqlari faoliyatiga ham salbiy ta'sir etmoqda. Biroq, iqlim o'zgarishi sharoitida tabiiy va texnogen hodisalarning qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatiga ta'sirini oldini olish va moliyaviy ko'mak berish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, bugungi kunda aholi va qayta ishlash tarmoqlarini chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashda fermer va dehqon xo'jaliklarining o'rni o'ziga xos ahamiyatga ega. Chorvachilik mahsulotlarini xalqimizga etkazib berayotgan chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar misolida ko'radigan bo'lsak, yirik shoxli qoramollar soni 2011 yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda 9 642,7 ming boshni tashkil etgan bo'lsa, shundan 5,3 foizi yoki 507,2 ming bosh chorva hayvonlari fermer xo'jaliklariga tegishlidir. Ushbu davrda aholi xonadonlariga tegishli chorva hayvonlari ulushi 94,7 foizni tashkil etgan. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari soni shu davrda 6487 tani tashkil etgan (18-ilovaga qarang).

2021 yil holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar soni 13 555,8 ming boshni tashkil etgan holda 2011 yilga nisbatan 3 913,1 ming boshga ortgan. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari soni (chorvachilikning qoramol, qo'y va echkilar, tuya va yilqichilik) 2021 yilga kelib 13519 tani tashkil etgan.


Fermer xo'jaliklarida mavjud yirik shoxli qoramollar bosh soni 2021 yilda 2011 yilga nisbatan 1,7 baravarga yoki 378,1 ming boshga ortganini ko'rish mumkin. Biroq, ma'lumotlaridan xulosa qilib aytish joizki, chorva hayvonlarining asosan yirik shoxli qoramollarning deyarli 90-95 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda etishtirilayotganligi va aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda, shu jihatdan 2021 yil holati bo'yicha chorvachilik xo'jaliklarining ixtisoslashuviga ko'ra 7614 ta qoramolchilikka, ya'ni yirik shoxli qoramollar boqishga, 3263 ta mayda shoxli qo'y va echkichilik xo'jaliklariga, 142 ta yilqichilik yo'nalishiga, 52 ta tuyachilikka, 1163 tasi parrandachilik xo'jaliklariga, 429 tasi baliqchilik xo'jaliklariga, 715 tasi asalarichilik xo'jaliklariga hamda 254 tasi quyonchilik yo'nalishida faoliyat yuritib kelmoqda. Chorvachilikning qoramolchilik yo'nalishida hozirda 500 boshdan 1000 boshgacha chorva moli bo'lgan xo'jaliklar soni 256 taga, 1000 bosh va undan yuqori chorva hayvonlari mavjud bo'lgan xo'jaliklar soni 136 tani tashkil qilmoqda.

Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida aholi xonadonlari va fermer xo'jaliklarida parvarishlanayotgan sigir va tanalar sun'iy


urug'lantirilib, qoramollarning zotini yaxshilash hisobiga ularning bosh soni oshib bormoqda. Shuningdek, qarorda ta'kidlanishicha bugungi kunda mamlakatimizga xorijiy davlatlardan go'sht yo'nalishida etishtiriladigan qoramollarning Aberdin-angus, Sharole, Gereford va Limuzin zotlari olib kelindi. Shuningdek, sut yo'nalishidagi Djersey, Shvis va Monbilyard kabi yangi zotlarini olib kelish natijasida chorvachilik tarmoqlari yangi naslli zotlar bilan boyimoqda. Ushbu zotdor chorva hayvonlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlarida parvarish qilinmoqda. Chorva hayvonlarining naslini yaxshilash bo'yicha bugungi kunda 497 ta xo'jalik naslchilik toifasiga o'tkazilib, ularning soni 1 640 tani tashkil etadi.

Biroq, mahalliy va xorijdan keltirilayotgan chorva hayvonlarini parvarishlash jarayonida turli kasallik va tabiiy ofatlarning ta'siri natijasida chorva hayvonlarining o'limi bilan bog'liq holatlar sezilarli darajada tarmoq rivojiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. 2010-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha chorva hayvonlarining asosan yirik shoxli qoramollar bo'yicha turli kasallik va boshqa tabiiy ofatlardan o'lim holatini tahliliy jihatdan ko'radigan bo'lsak, 2010 yilda chorva hayvonlarining xazm qilish kasalliklaridan o'lganlar soni 1158 tani, nafas olish a'zolari kasalliklaridan o'lganlar soni 1153 tani, modda almashinuv buzilishi kasalliklari natijasida o'lganlar soni 104 tani tashkil etgan bo'lsa, turli jarohatlar va boshqa tabiiy ofatlardan o'lganlar soni 143 tani tashkil etgan. 2021 yilga kelib o'lim holati o'tgan davrlarga nisbatan pasayganligini ko'rish mumkin (1-pasm).



1-pasm. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2010-2021 yillarda chorva hayvonlarining turli kasallik va boshqa tabiiy ofatlardan o'lim holati dinamikasi (yirik shoxli qoramollar bo'yicha)²


Chorvachilik tarmog'ini sug'urtalash bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari hajmi o'zgarishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asosan 2010-2011 yillar eng yuqori ko'rsatkich darajasini ko'rsatmoqda. Biroq, 2012 yildan boshlab asta-sekin sug'urta shartnomalari soni kamaya boshladi. 2021 yil holatiga ko'ra, chorva hayvonlarini sug'urtalash bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari soni 15 yil ichida keskin kamayishi kuzatilgan, ya'ni 2006 yilga nisbatan 263 276 taga yoki 327,6 baravarga, 2010 yilga nisbatan esa 105,2 baravarga kamayganligini ko'rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida chorva hayvonlarini sug'urtalash bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalarining yillar kesimida o'zgarish holati (2010-2021 yillar)³

Chorva hayvonlarini sug'urtalash maqsadida qishloq xo'jaligi korxonalari bilan tuzilgan sug'urta shartnomalari muhim huquqiy xujjat hisoblanadi, biroq har bir tuzilgan sug'urta shartnomasining kuchga

kirishi sug'urtalanuvchi mijoz tomonidan o'z vaqtida to'lanadigan sug'urta mukofoti tushumiga bevosita bog'liq. Shu bois, sug'urta mukofotini to'lanishi sug'urta shartnomasining kuchga kirganligini anglatadi.



3-rasm. Respublika bo'yicha fermer va dehqon xo'jaliklarida mavjud chorva hayvonlarini sug'urtalashdan tushgan sug'urta mukofoti tushumi hajmi, ming so'm (2010-2021 yillar)⁴

Respublikamiz bo'ylab qishloq xo'jaligi korxonalarida mavjud chorva hayvonlarini sug'urtalash holatini 2010-2021 yillar bo'yicha tushgan sug'urta mukofoti tushumi dinamikasi 3.12-rasmda keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, 2021 yilni 2010 yildagi sug'urta mukofotlari tushumiga taqqoslaydigan bo'lsak, deyarli 1,6 martaga kamaygan. 12 yil davomida sug'urta mukofotlari tushumi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 2017 yilda 497 000,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, sug'urta mukofotlari tushumi bo'yicha eng past ko'rsatkich 2014 yilda qayd etilgan bo'lib 13 419,2 ming so'mni tashkil etadi (3-rasm).

Agrosanoat majmuida mavjud chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida mavjud chorva hayvonlarini sug'urtalashning qamrov

darajasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2017 yilda fermer xo'jaliklariga tegishli chorva hayvonlarning soniga nisbatan qamrov darajasi 2,4 foizni tashkil etgan. 2021 yilga kelib sug'urta shartnomalari soni 14143 taga kamayganligi hamda fermer xo'jaliklariga tegishli chorva hayvonlarning soniga nisbatan qamrov darajasi 0,1 foizni tashkil etgan.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilish mumkinki, agrosanoat majmui korxonalari xususan, to'qimachilik sanoati, oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati, kimyo sanoati, ozuqa-yem sanoati tarmoqlarining asosiy ta'minotchisi hisoblanadi. Agrosanoat majmui tarmoqlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi xo'jaliklarning iqlim o'zgarishi natijasida ekinlar hosildorligiga ta'sir etuvchi omillarning ortib borishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosili kamayishiga yoki kutilgan hosilni olish imkoniyatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ob-havonining o'zgarishi ta'sirida turli zararkunanda va hashoratlarining ham ekinlar hosiliga ta'siri ortib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi bo'yicha sug'urta shartnomalarining soni kamayishiga asosiy sabablardan biri – tijorat banklari tomonidan ekinlar hosilini sug'urtalash o'rni kredit qaytarilmasligi xavfini sug'urtalashni talab qilinayotganligidir. Bu esa, qishloq xo'jaligi korxonalarining manfaatiga emas, balki tijorat banklari manfaatlariga xizmat qilmoqda. Shu sababli, qishloq xo'jaligini sug'urtalashning moliyaviy manbalari noaniq bo'lmoqda.

Yirik shoxli qoramollarni respublika bo'yicha nafas olish kasalliklari va xazm qilish a'zolari kasalliklaridan o'lganlar soni boshqa kasalliklarga nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Aynan, yirik shoxli qoramollar ushbu kasalliklardan sug'urtaviy himoya qilishga e'tiborni yanada oshirish maqsadga muvofiqdir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.01.2020 yildagi PQ-4576-son "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/4717189>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 martdagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. <https://lex.uz/docs>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» 4576-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrda PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi" Farmoni. <https://lex.uz/docs>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» 4576-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 martdagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. <https://lex.uz/docs>
8. Tahereh Biglari, Hamideh Maleksaeidi, Farzad Eskandari, Mohammad Jalali. Livestock insurance as a mechanism for household resilience of livestock herders to climate change: Evidence from Iran. Land Use Policy Volume 87, September 2019, 104043. <https://ideas.repec.org/a/eee/lausp/v87y2019ics0264837719304168.html>
9. Felix Johna, Russell Toth, Karin Frank, Jürgen Groene veld, Birgit Müller. Ecological Vulnerability Through Insurance? Potential Unintended Consequences of Livestock Drought Insurance. Ecological Economics Volume 157, March 2019, Pages 357-368. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0921800918300132>
10. A.Yadgarov. (2020). AgroInsurance-As A Mitigating Financial Lever For Climate Change In Agriculture. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 2251 - 2258. <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/17501>
11. A.Yadgarov. The importance of using the agricultural insurance system in increasing the volume of agricultural production in pandemic conditions. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR) ISSN: 2319-1422 Vol.9, July 2020, Impact Factor: SJIF 2020 = 7.126. 31-37 page. <https://saarj.com/wp-content/uploads/sjbir-july-2020-full-journal>
12. A.Yadgarov. Issues of food safety on the basis of agricultural insurance. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering ISSN: 2689-1018, JULY 2020. Page No.: 43-52 Volume-II Issue-VII PUBLISHED: 30 JULY 2020. <https://usajournalshub.com/index.php/tajabe/article/view/576/539>
13. <http://www.agros.uz> Annual reporting data of Uzagrosugurta JSC...